

## QURILISH ISHLAB CHIQRISHNI BOSHQARISH

*Siddiqov Mo‘minjon Yunusovich*

*JizPI “Iqtisodiyot va menejment” kafedrasida dotsenti*

*Sayitmurotova Ziyoda Shuxrat qizi*

*JizPI 531-20 gurux talabasi*

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev raisligida 16 yanvar kuni 2024 yilda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash bo'yicha ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor egi'lishida qo'ida qilargalarga to'xtalib o'tdilar; 2023-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, respublika bo'yicha jami doimiy yashovchi aholi soni 36 372,3 ming kishini tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 2,2 foizga qo'shilmoqda. O'tkazilayotgan samarali islohotlarimiz natijasida 2023 yilda yalpi ichki mahsulot hajmi ilk bor 90,8 mlrdni, statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra so'mda 2023-yilda O'zbekistonda yalpi ichki mahsulot (YalM) joriy narxlarda 1,06 kvad mln so'mni tashkil etgan.

Jizzax viloyatida qurilish sohasi bilan band bo'lgan qurilish korxonalarini 2023 yil 1 dekabr holatiga 1570 tani tashkil etgan bo'lsa Respublikamizda 1 dekabr holatiga 35297 ta korxonalar faoliyat yuritayotganligi y'ani bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 4.45% ni tashkil etadi.

Bugungi kunda viloyatdagi qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalarini 20% i atrofidagi korxonalar o'zini zamon talabiga javob beradigan qurilish mashina mexanizmlari, asbob uskunalarini va jihozlariga ega bo'lib, bunday korxonalar bevosita qurilish tendirlarida muvofaqiyatli qatnashib ijobiy natijalarga erishib kelishmoqda.

Yoqorida qayd etilayotgan sonlardagi qurilish korxonalarining aksariyatida alohida ofislar va asosiy vositalari mavjud emas. Ularning kupchilik qismida viloyat statistika bo'limlariga berilgan hisobotlarida 1-3 kishidan tashkil topgan xodimlardan iborat ekanligini ko'zatishtimiz mumkin. Faoliyat yuritayotgan qurilish korxonalarida tenderdan keyingi holatga e'tibor beradigan bo'lsak aksariyat qurilish firmalarini o'zining shtat birliklarida malakali quruvchilar bilan to'ldirilmaganligini ko'zatishtimiz mumkin. Yuqoridan qo'yilayotgan talablardan kelib chiqib bugungi kunda qurilish tendirlarida ishtirok etayotgan qurilish firmalari ishlovchilar sonini 15-50 kishi atrofida shakillantirib tanlovga taqdim etishmoqda. O'z faoliyatini olib borayotgan korxonalarining qurilish montaj ishlarini bajarishda ishtirok etayotgan malakali ishchi xodimlarini qunimsizligi yuqoriligicha qolmoqda. Ishchilar va xizmatchilarning qo'nimsizligining asosiy sabablaridan biri ish haqqining kamligi bo'lib hisoblanadi. Ularga to'lanayotgan oylik ish haqqi miqdori 900.0 ming so'mdan 3 million so'mga bo'lib, bu oylik ish haqqidan daromad solig'i undirilgan keyingi holatdagi ish haqqi miqdori jismoniy mehnat bilan sho'g'ullanayotgan ishchilarni qanoatlantirmaydi.

Bugungi kunda aksariyat qurilish firmalari bajarayotgan qurilish montaj ishlarini yollanma ishchilar hisobiga bajarishga ko'nikma xosil qildilar. Ayniqsa uy-joy qurilishiga ixtisoslashgan qurilish firmalari xech qanday tendirsiz, axolidan uy-joy uchun yerlarni kelishilgan narxlarda sotib olib, qurilish ishlarini olib borishmoqda. Aksariyat firmalarni o'zlarini ta'saruflarida malakali ishchi xodimlarini yuq bo'lib, ular asosan yollanma ishchilarni jalb qilib, qurilish montaj ishlarini bajarib kelishmoqda. Yollanma ishchilar kelishilgan ish haqqini xech qanday hujjatsiz naqd pul shaklida olishmoqda. Amaldagi ish haqqi qaydnomalarida u yerda ishlamasalarda boshqa shaxslarni nomiga qaydnomalar rasmiylashtirilib kelinmoqda.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev 16 yanvar kuni 2024 yilda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash bo'yicha ustuvor vazifalar muhokamasida uy-joy qurilishi

firmalari xech qanday ishchilarni hujjat asosida rasmiylashtirmasidan 20 milliard soʻmlik binoni foydalanishga topshirganligini qanday izoxlash mumkinligini tanqidiy baholadilar.

Albatta yuqoridagi kabi salbiy oqibatlar negizida yashirin iqtisodiyot ildiz otayotganlini koʻzatishimiz mumkin.

Buni bartaraf etish uchun quyidagilarni amalga oshirishni tavsiya etamiz:

1. Ishchi xizmatchilarni qunimsizligini oshirish maqsadida malakali ishchilarni jalb qilish va ularni mehnatiga haq toʻlashni yaxshilash.
2. Yollab ishlayotgan ishchilarni ish haqlarini toʻlov qaydnomalari orqali rasmiylashtirish.
3. Ishchi xodimlarni kvalifikatsiyasi boʻyicha darajalarga ajratish mexanizmini joriy etish.

Qurilish firmalarini faoliyatini amalda raqamlashtirishga oʻtishi yuqorida yoʻl qoʻyilayotgan kamchiliklarni oldini olishga xizmat qiladi

#### **Foydalanilgan adabiyotlar roʻyhati.**

1. Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida 16 yanvar kuni 2024 yilda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni taʼminlash boʻyicha ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yigʻilishi <https://president.uz/ru/lists/view/>
2. Сиддиқов, М. Ю., & Бердиқулов, А. М. (2016). Методология оценки стоимости строительного предприятия. *Молодой ученый*, (7-2), 89-93.
3. Siddiqov, M. (2023). IN THE GHAZALS OF FUZULI AND SOUFI OLLOYOR ONE AFFINITY. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 12(09), 126-132.

